

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi qiymatini baholash bo'yicha uslubiy NIZOM

Ushbu Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114- son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizom sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarining shakllanish tartibini belgilaydi (tovarlar, ishlar, xizmatlar) va statistika organlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarishining umumiy hajmi bo'yicha statistika ma'lumotlarini shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-Bob. Umumiy tushunchalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

ishlab chiqarish – faoliyat natijasida mahsulot kelib chiqishi;

yarim tayyor mahsulot – iste'mol uchun tayyor bo'lmagan va kelgusida ishlov berish talab qilinadigan, qisman ishlov berilgan mahsulot;

buyurtmachi tomonidan berilgan xomashyo – tuzilgan shartnomalar asosida qayta ishlab, undan mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlab chiqaruvchilarga berilgan buyurtmachining xomashyosi;

ishlab chiqarilishi uzoq davrni talab etadigan mahsulot – buyurtmachi bilan bajariladigan hisob-kitoblar alohida to'lov asosida amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish davri hisobot davridan uzoq bo'lgan mahsulot;

tayyor mahsulot – sotish uchun mo'ljallangan va shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida ko'zda tutilgan texnik hamda sifat tavsiflariga muvofiq keladigan, tashkilotning ishlab chiqarish sikli pirovard natijasi bo'lgan tovar (xizmat).

2-Bob. Sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining statistik hisobi

2. Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi quyidagilarning sanoat faoliyatlarini o'z ichiga oladi:

- a) tijorat tashkilotlari (kichik korxona va mikrofirmalardan tashqari);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar;
- d) qishloq xo'jaligida sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar;
- e) uy xo'jaliklarining sotish hamda o'z iste'moli uchun ishlab chiqarish faoliyati.

3. Ishlab chiqarilgan sanoat hajmiga quyidagilarning qiymati qo'shiladi:

- a) hisobot davrida buyurtmachining, shuningdek, tashkilotning o'z xom-ashyo va materiallaridan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar;
- b) hisobot davrida chetga sotilgan, o'zining kapital qurilishi va o'z tashkilotining nosanoat bo'linmalariga berilgan o'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar;
- d) hisobot davrida ishlab chiqarilishi tugatilmagan, ishlab chiqarilishi uzoq davrni talab etadigan mahsulotlar (buyumlar)ni tayyorlash bo'yicha ishlar;
- e) tashqi buyurtma asosida, o'zining kapital qurilishi va o'zining nosanoat bo'linmalari uchun sanoat xususiyatiga ega bo'lgan bajarilgan ishlar (xizmatlar), shuningdek, o'zining ishlab chiqarish vositalari va jihozlarini modernizatsiyalash hamda rekonstruksiya qilish bo'yicha bajarilgan ishlar.

4. Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

5. Umume'tirof etilgan xalqaro ko'rsatmalarga rioya etishni ta'minlash maqsadida, sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratadilar:

- a) ishlab chiqarilgan mahsulot qabul qilish aktlari bilan rasmiylashtirilgan va tayyor mahsulot omboriga, buyurtmachiga hisobot davri oxirgi kunining mahalliy vaqt bilan soat 24:00 gacha topshirilgan yoki yuklab jo'natilgan taqdirda, u hisobot davridagi tayyor mahsulot hajmi tarkibida hisobga olinadi. Agar

tashkilotda tayyor mahsulotlarni saqlash ombori mavjud bo'lmasa, u holda mahsulot buyurtmachiga yuklab jo'natilgan vaqti bo'yicha ishlab chiqarish hajmiga qo'shiladi;

b) ish tartibi ikki smenali tashkilotlar uchun, agar ikkinchi smena soat 24:00 dan keyin tugasa, shuningdek tashkilotning ish tartibi uch smenali bo'lib, grafik bo'yicha birinchi smena ertalabki smena bo'lib hisoblansa, ishlab chiqarilgan mahsulot hisobot oyi uchun tayyor mahsulot hajmi tarkibida hisobot davridan keyingi oy birinchi sanasining ertalabki soat 8:00gacha ishlab chiqarilgan, o'rnatilgan ravishda qabul qilingan va omborga, buyurtmachiga topshirilgan yoki ortib jo'natilgan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bo'lsa hisobga olinadi;

d) agar shartnomada, yetkazib berish shartlarida mahsulotni buyurtmachi vakili tomonidan ishlab chiqaruvchi hududida qabul qilish nazarda tutilgan bo'lsa, mahsulot buyurtmachining vakili tomonidan qabul qilingan va tegishli qabul aktlari bilan rasmiylashtirilgandan so'ng tayyor mahsulot bo'lib hisoblanadi;

e) tashkilotning o'z ichki ehtiyojlari uchun ishlab chiqargan va asosiy vositalar hisobiga kiritilgan jihozlar, asbob-uskunalar va moslamalarining qiymati, ular asosiy vositalar hisobiga kiritilgan vaqti bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmiga va natura ko'rinishida ishlab chiqarilgan mahsulot to'g'risidagi ma'lumotlarga kiritiladi;

f) sanoat tusiga ega bo'lgan ishlar (xizmatlar), to'liq bajarilgandan va buyurtmachi tomonidan qabul qilish tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgandan so'ng, ularning qiymatiga, buyurtmachi tomonidan ishlov berish, ta'mirlash, mahsulotni to'liq tayyor ko'rinishga keltirish uchun berilgan qismlar (detallar), buyumlar, materiallar, uzellar, ehtiyot qismlari qiymatisiz, bajaruvchi tomonidan sarflangan o'z materiallari, uzellari, detallari va ehtiyot qismlar qiymatini qo'shgan holda, sanoat ishlab chiqarishi hajmiga kiritiladi;

g) qora, rangli va qimmatbaho metall parchalari va chiqindilarini zaruriy standartlarga javob berishini ta'minlagan holda metallurgik eritishga tayyorlab, boshqa tashkilotlarga metallurgik qayta ishlash uchun yuborish ishlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanoat mahsuloti hajmiga ushbu metall parchalari va chiqindilarning qiymatini kiritadilar;

h) eksportga mo'ljallangan mahsulotning amaldagi narxlardagi qiymati, sanoat ishlab chiqarishi hajmlaridan kelib chiqib, uni yuklab jo'natish sanasiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining so'mga qayta hisoblangan kursi bo'yicha milliy valyutada, shartnomada ko'rsatilgan narxlarda aniqlanadi. Bunda,

QQS, aksiz, bojxona yig'irlari, respublika hududida eksport punktigacha bo'lgan transport xarajatlari chiqarib tashlanadi;

l) agar mahsulot, buyurtmachining ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan sotib olinmagan xomashyo va materiallaridan (buyurtmachi bergan xomashyo) tayyorlangan bo'lsa, unda amaldagi narxlardagi sanoat mahsuloti hajmiga, xomashyo va materiallarning qiymatini qo'shmagan holda, faqat ushbu xomashyoni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati kiritiladi;

j) sanoat ishlab chiqarish hajmiga, tuzilgan shartnomalar asosida buyurtmachilar bilan alohida bosqichlarda hisoblanadigan, ishlab chiqarilishi uzoq davrni talab etadigan mahsulot, buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibdagi bosqichlarda qabul qilingan qiymat bo'yicha kiritiladi.

6. Sanoat tusidagi ishlar va xizmatlarga mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha alohida operatsiyalar, materiallar va xomashyoni qayta ishlash, o'rnatilgan texnologik jarayonlarga rioya etishni nazorat qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi B, C, D, E seksiyalariga kiritilgan boshqa ishlar va xizmatlar kiradi.

7. Asosiy sanoat ishlab chiqarish jarayoni davomida qo'shimcha ravishda hosil bo'ladigan va tashkilot tomonidan keyinchalik ishlov berilmasdan sotiladigan mahsulotlar (masalan, oltingugurtli rux oksidi, butil spirti, natriy sulfat, koksli gaz, domna qotishmasi, domna gazi, texnik va ekiladigan paxta chigiti, paxta linti, paxta zavodlarning momiq va ulyuk aralashgan chiqindilari, teri va qo'y terisiga ishlov berishdan olinadigan jun va dag'al junlar, terilar, qayta ishlanmagan xomaki moylar, chorva tuyuq va shoxlari, kunjara, barda (pivo va aroq quyqasi), kepak, yog'i olingan sut, ayron, zardob, shulxa, melassa va boshqa mahsulotlar) chiqindi bo'lib hisoblanmaydi va sanoat ishlab chiqarish tarkibiga kiritiladi.

8. Quyidagilar sanoat ishlab chiqarish hajmiga kiritilmaydi:

a) to'liq komplektlanmagan va yaroqsiz deb topilgan mahsulotlar hamda yarim tayyor mahsulotlar qiymati;

b) sotib olingan va qayta ishlov berilmasdan, qayta ishlanmasdan chetga sotilgan materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va buyumlar (hatto sotish oldidan buyumlar sifatini tekshirish, saralash, qadoqlash va boshqa shu kabi tadbirlar amalga oshirilsa ham), shuningdek, sotib olinib chetga sotilgan elektroenergiya, suv, bug', gaz qiymati;

d) boshlang'ich xomashyo qoldiqlaridan tashkil topgan ishlab chiqarish chiqindilari (qirindi, qiyqimlar va boshqalar), shuningdek laxtaklar, mato chetlari va shu kabilarning qiymati.

Agar sanoat chiqindilari sotilsa va bunda ularni sotish uchun oldindan yuvib tozalash, saralash, qadoqlash va boshqa jarayonlar amalga oshirilsa, u holda sanoat ishlab chiqarish hajmiga, chiqindilarni sotishga tayyorlash uchun faqat o'z kuchi bilan bajarilgan ishlar qiymati kiritiladi;

e) tashkilot tomonidan ishlab chiqarilgan nosanoat mahsulotining qiymati;

f) o'zi ishlab chiqargan mahsulotlar va buyumlarni kafolatli ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun berilgan o'zi ishlab chiqargan tayyor mahsulotlar va ehtiyot qismlar qiymati;

g) ijodiy faoliyatga oid ishlar qiymati (rassomlar tomonidan bajarilgan rasmlar, haykallar, grafika, yirik san'at asarlari va amaliy san'at namunalarining asl nusxalari, rasmlar, plakatlarning nusxalari va shu kabilari), shuningdek, badiiy bezak ishlarining barcha turlari (bezash loyihalari va muzeylar, vitrinalar, stendlar, reklamalar va boshqalarni bezash ishlari).

9. Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, o'zining sanoat ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun ishlatilgan, ushbu tashkilot ichida foydalanadigan o'zi ishlab chiqargan tayyor va yarim tayyor mahsulotlar qiymatini (asosiy vositalar tarkibida hisobga qo'yilgan mahsulotlardan tashqari) hisobga olmagan holda aniqlanadi.

10. Amaldagi narxlardagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmi, tegishli yilning hisobot davrida amalda bo'lgan tashkilot narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Bunda, belgilangan tartibga muvofiq kelishilgan narx va tariflarda sotilayotgan mahsulotlar, ishlab chiqarish hajmiga kelishilgan ulgurji narxlarda hisoblanib kiritiladi. Hisobot yilida narxlar o'zgarganda o'tgan yil narxlari qayta hisoblanmaydi.

11. Kelishilgan narxlarda sotilayotgan mahsulot, QQS va aksizlarni chiqarib tashlagan holda, sotish narxlarida ishlab chiqarish hajmiga qo'shiladi.

Agar, muayyan bir davrda ishlab chiqarilgan mahsulot sotilmagan bo'lsa, unda ishlab chiqarish hajmining qiymat ifodasi yuzaga kelgan sotish narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

3-Bob. Sanoat ishlab chiqarishi hajmi shakllanishining axborot manbalari

12. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida;

b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida;

d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari;

e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

13. Yilda bir marotaba, tijorat tashkilotlari, fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlarning statistika hisobotlari, kichik tijorat korxonalari va mikrofirmalarning soddalashtirilgan hisobotlari, hisobot davrida tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyatini baholash, sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish qismida uy xo'jaligi faoliyatini baholash asosida, sanoat ishlab chiqarish umumiy hajmi to'g'risidagi aniqlashtirilgan ma'lumotlar shakllantiriladi.

14. Hisobot yilida tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholash, ushbu korxonalarning o'tgan yildagi ishlab chiqargan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining choraklik ishlab chiqarish hajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_{ki} = \left[\frac{V_y}{V_p - V_y} \right] * V_s$$

bunda, V_{ki} – hisobot yilining i-choragida tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi;

V_y – hisobot yilida tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining o'tgan yildagi sanoat ishlab chiqarish hajmi;

V_p – kichik tadbirkorlik subyektlarining o'tgan yildagi sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmi;

V_s – jami jamlanmaga tarqatilgan hisobot yilining i-choragidagi tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari.

15. Har chorakda sanoat ishlab chiqarishining hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) yirik tijorat tashkilotlari bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik korxonalar va mikrofirmalarning choraklik kuzatuvlar ma'lumotlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi hajmini, tugatilgan korxonalarning hajmini hisobga olgan holda baholash;

d) boshqa yuridik shaxslar (sanoat faoliyatini amalga oshiruvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, fermer xo'jaliklarini qo'shgan holda, notijorat tashkilotlar), uy xo'jaliklari va yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqarish faoliyatining sanoat ishlab chiqarishi hajmini baholash.

16. Har oylik sanoat ishlab chiqarishi hajmi, tezkor tarzda, yirik tijorat tashkilotlarining hisobot ma'lumotlari, boshqa yuridik shaxslar, (sanoat faoliyatini olib boruvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar, qishloq xo'jaligida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, fermer xo'jaliklarini qo'shgan holda) yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari va uy xo'jaliklarida sanoat ishlab chiqarishi faoliyati asosida shakllantiriladi.

Sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmi to'g'risida statistika ma'lumotlarini shakllantirish sxemasi uslubiy nizomning 1-ilovasida ko'rsatilgan.

4-Bob. Kichik tadbirkorlik subyektlari va nosanoat tashkilotlarning sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

17. Kichik korxonalar va mikrofirmalarining oylik sanoat ishlab chiqarishi hajmlari choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{ci} = \frac{\frac{V_{ki}}{(3 + V_s)}}{3}$$

bunda,

V_{ci} – i -chorak uchun tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari bo'yicha hisoblangan kichik korxonalar va mikrofirmalarining o'rtacha oylik hajmi, tugatilgan korxonalar hajmini hisoblagan holda.

3- bir chorakdagi oylar soni.

Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning choraklik ishlab chiqarish hajmi bo'yicha hisoblash namunasi uslubiy nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan.

18. Kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi chorakning oxirgi oyida o'tkazilishini inobatga olgan holda, joriy chorakning tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlari olingunga qadar, keyingi hisobot davrini baholashda, kichik

korxonalar va mikrofirmalarning ishlab chiqarish o'rtacha oylik hajmi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$V_{ci} = \frac{V_{m1}}{3} * I_i$$

bunda, V_{m1} – tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda jami jamlanmaga tarqatilgan o'tgan chorak uchun tanlanma kuzatuv ma'lumotlari;

I_i – kuzatuv so'rovnomasiga kiritilgan iqtisodiy holatning o'tgan yil tegishli davriga nisbatan “yaxshilanish” yoki “yomonlashish” baholash ko'rsatkichlari asosida hisoblab chiqilgan tuzatish koeffitsiyenti.

19. Tuzatish koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_i = \frac{I_n}{100} * D_i$$

bunda, I_n – joriy chorak ishlab chiqarish hajmining o'rtacha miqdor o'zgarish indeksi oldingi uch yilga (foiz hisobida) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_n = \sqrt[3]{I_{n-1} * I_{n-2} * I_{n-3}}$$

bunda

I_{n-1} – kichik korxonalar va mikrofirmalarning o'tgan yilning mos davridagi ishlab chiqarish hajmi indeksi;

I_{n-2} – kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2 yil oldingi yilning mos davridagi ishlab chiqarish hajmi indeksi;

I_{n-3} – kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3 yil oldingi yilning mos davridagi ishlab chiqarish hajmi indeksi;

D_i – yaqin uch oy davrida faoliyatini yaxshilash istiqbollari mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi.

Tuzatish koeffitsiyentini hisoblash na'munasi uslubiy nizomning 3-ilovasida ko'rsatilgan.

Sanoat ishlab chiqarishining choraklik hajmini hisoblash namunasi uslubiy nizomning 4-ilovasida ko'rsatilgan.

20. Chorakning oxirgi oyi uchun ishlab chiqarish hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V_3 = (V_{ki} + V_{ci}) - V_1 - V_2$$

bunda, V_3 – chorakning oxirgi oyi uchun ishlab chiqarish hajmi,

V_1, V_2 – hisobot choragining birinchi va ikkinchi oylarida hisoblangan ishlab chiqarish hajmi.

21. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat faoliyati turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi hajmining oylik taqsimoti ularning oldingi yil uchun yillik hisoboti asosida umumiy sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi orqali amalga oshiriladi.

22. Nosanoat tashkilotlarning sanoat bo'linmalari, fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat ishlab chiqarishining oylik hajmi, o'tgan yil uchun aniqlashtirilgan (yillik) amaldagi ma'lumotlar asosida, ularning sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushlaridan kelib chiqqan holda baholanadi.

5-Bob. Uy xo'jaligida sanoat ishlab chiqarishi hajmlarini aniqlash

23. Uy xo'jaligida sanoat ishlab chiqarishi hajmi, jismoniy shaxslar tomonidan sotish yoki o'z iste'moli uchun amalga oshirilgan ishlab chiqarish faoliyati natijalaridan hosil qilinadi.

24. Uy xo'jaliklarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{dx} = \sum_{n=1}^m \frac{V_p}{K_{dx}} * D_c * S_i$$

bunda,

V_{dx} – uy xo'jaliklarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi;

V_p – i -tovarni qayta ishlashdan olingan mahsulot (natura ko'rinishida);

K_{dx} – kuzatilgan uy xo'jaliklari soni;

D_c – barcha (tuman, viloyatdagi) uy xo'jaliklari soni;

S_i – mahsulot birligi uchun xarid narxi (bozor narxlarida baholanadi).

Bu ma'lumotlar, qayta ishlashga berilgan mahsulotlarni (go'sht, sut, baliq), shuningdek, qayta ishlashdan olingan natura ko'rinishidagi mahsulotlarni (kolbasa mahsulotlari, mol yog'i, pishloq, brinza, o'simlik yog'i, go'shtli va go'shtli-sabzavotli konservalar, sabzavot konservalari, meva konservalari, quritilgan sabzavotlar, quritilgan mevalar, un, non va non mahsulotlari, qandolat mahsulotlari, makaron mahsulotlari, tuzlangan, quritilgan baliq, murabbo, vino) hisobga oladi.

Shu bilan birga, qayta ishlashga yuborilgan va qayta ishlashdan olingan mahsulot qayta ishlashga berilgan va qayta ishlanayotgan vaqtdagi bozor narxlarida baholanadi.

25. Jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish hajmlarini hisoblashda Statistika agentligi tomonidan o'rnatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bo'yicha so'rovnoma kuzatuv, soliq organlari ma'lumotlari bo'yicha, hisobot davrida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar sonidan kelib chiqib o'tkaziladi.

Hisob-kitoblar quyidagi algoritm bo'yicha amalga oshiriladi:

$$V_{ip} = \sum_{n=1}^m M_s$$

bunda,

V_{ip} – yakka tartibdagi tadbirkorlarning bir oyda sanoat ishlab chiqarishi hajmi;

M_s – ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari soni;

m – ishlab chiqarilgan mahsulotning bir oylik hajmi;

26. Statistika agentligi tomonidan o'rnatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bo'yicha so'rovnoma kuzatuv, soliq organlari ma'lumotlari bo'yicha, hisobot davrida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar sonidan kelib chiqib o'tkaziladi.

6- Bob. Yakuniy qoidalar.

27. Mazkur uslubiy nizomni tayyorlashda, O'zbekiston Respublikasining sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan, Milliy hisoblar tizimi (MHT) – 2008 ta'riflari va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlari tajribalaridan foydalanildi.

28. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.


Ma'lumot uchun foydalanilgan axborotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining davlat standarti O'zDSt 2914:2014//Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (MSK), "Uzstandart" Agentligi tomonidan 2015-yil 19-yanvardagi 05-612-son qaror bilan tasdiqlangan.
2. Qayta ishlashga berilgan xom ashyo bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risidagi nizom, (2010-yil 15-martdagi 2086-son bilan ro'yxatga olingan).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori.
4. Sanoat statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar 2008- yil // Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti, M № 90 seriyasi // Nyu-York, 2010- yil.
5. Milliy hisoblar tizimi 2008- yil//Yevropa komissiyasi, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki // Nyu-York, 2012- yil.

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi
qiymatini baholash bo'yicha uslubiy nizomga

1-ilova

Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlarining shakllanishi sxemasi



Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi
 qiymatini baholash bo'yicha uslubiy nizomga
 2-ilova

**Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning choraklik ishlab chiqarish hajmi bo'yicha
 2021-yilning 2-choragi uchun hisoblash namunasi**

Shartli namuna

	Amaldagi narxlarda sanoat ishlab chiqarishi hajmi, mlrd.so'm
V_y – 2021- yilda tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-yil uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmi	64,0
V_p – o'tgan yil uchun kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi	1280,9
V_s – jami jamlanmaga tarqatilgan <i>i</i> -choragi uchun 4-sanoat shakli bo'yicha tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlari	382,2
V_{ki} – hisobot yilidagi <i>i</i> -chorak davrida tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi	$20,1 = [64,0 : (1280,9 - 64,0)] \times 382,2$

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi
qiymatini baholash bo'yicha uslubiy nizomga

3-ilova

**2021-yilning 2-choragi uchun kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmini aniqlash uchun
tuzatish koeffitsiyentini hisoblashning shartli namunasi**

	Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2-chorakdagi ishlab chiqarish hajmini 1-chorakka nisbatan o'zgarishi indeksi				Sanoat ishlab chiqarishi hajmini to'ldirgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (4 kb kuzatuv 2021-y. 1 choragi uchun)		Yaqin uch oy davrda faoliyatini yaxshilash istiqbollari mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi	Tuzatish koeffitsiyenti
	2018-y.	2019- y.	2020-y.	Ishlab chiqarish hajmi o'zgarishini o'rtacha geometrik qiymati	jami	shulardan, yaqin uch oy davrda faoliyatini yaxshilash istiqbollari mavjud bo'lganlari		
Jami sanoat bo'yicha	125,3	124,5	127,6	125,8	1093	1060	$0,97 = 1060:1093$	$1,22=125,8:100 \times 0,97$

Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi
qiymatini baholash bo'yicha uslubiy nizomga

4-ilova

**Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yil 2-chorak uchun faoliyat turlari asosida
choraklik sanoat mahsulotini ishlab chiqarish bo'yicha shartli misol**

mln.so'm

	2020-yilda sanoatdagi faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi, % da	Yillik statistika hisoboti ma'lumotlari bo'yicha mahsulot sotishdan tushumi mavjud kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha ma'lumot (1 kb shakli)			Kuzatuv yilida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi (4 sanoat kuzatuvi)	2021- yil 2-choragi uchun kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi (tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda)
		ushbu kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi	tuzatish koeffitsiyenti	aniqlashtirilgan sanoat hajmi (tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda)		
A	1	2	3	4	5	6
Sanoat - jami		312843,5	1,22	381669,1	530,2	382199,3
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni qazish	100,0	16803,2	1,22	20499,9		20499,9
Tog'-kon sanoatining boshqa faoliyati	100,0			20499,9		20499,9
Ishlab chiqaradigan sanoat	100,0	293053,5	1,22	357525,3	530,2	358055,4
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	13,6			48623,4	130,2	48753,6
Ichimliklar ishlab chiqarish	9,8			35037,5	37,0	35074,5
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	9,9			35395,0	30,0	35425,0
Kiyim ishlab chiqarish	10,6			37897,7	155,0	38052,7

	2020-yilda sanoatdagi faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi, % da	Yillik statistika hisoboti ma'lumotlari bo'yicha mahsulot sotishdan tushumi mavjud kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha ma'lumot (1 kb shakli)			Kuzatuv yilida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi (4 sanoat kuzatuv)	2021- yil 2-choragi uchun kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi (tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda)
		ushbu kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi	tuzatish koeffitsiyenti	aniqlashtirilgan sanoat hajmi (tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda)		
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	8,7			31104,7	53,0	31157,7
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	3,0			10725,8		10725,8
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	1,4			5005,4		5005,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	8,1			28959,5		28959,5
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	5,8			20736,5		20736,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	7,8			27887,0		27887,0
Mashina va uskunalar tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	3,6			12870,9		12870,9
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	3,2			11440,8		11440,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan	2,5			8938,1		8938,1

	2020-yilda sanoatdagi faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi, % da	Yillik statistika hisoboti ma'lumotlari bo'yicha mahsulot sotishdan tushumi mavjud kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha ma'lumot (1 kb shakli)			Kuzatuv yilida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi (4 sanoat kuzatuv)	2021- yil 2-choragi uchun kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi (tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda)
		ushbu kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoat ishlab chiqarishi hajmi	tuzatish koeffitsiyenti	aniqlashtirilgan sanoat hajmi (tuzatish koeffitsiyentini hisobga olgan holda)		
mashina va uskunalar ishlab chiqarish						
Mebel ishlab chiqarish	1,4			5005,4	125,0	5130,4
Boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish	1,5			5362,9		5362,9
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	9,1			32534,7		32534,7
Elektr ta'minoti, gaz, bug' uzatish va havo haroratini bir xilda saqlash	100,0	2986,8	1,22	3643,9		3643,9
Elektr ta'minoti, gaz, bug' uzatish va havo haroratini bir xilda saqlash	100,0			3643,9		3643,9
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	100,0	1870,0	1,22	2281,4		2281,4
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	100,0			2281,4		2281,4

Методическое положение по стоимостной оценке общего объема промышленного производства

